XALQ DEPUTATLARI TOMDI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

YANGI TOMDI QURG'ONI, +998 77 036 1823, r.sibayevtomdikengash@nv.uz

2026-yil 24-oktabr VII-33-97-5-75-K/26 Tomdi tumani

Tomdi tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2027-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

Tomdi tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi **965-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi 126-son Farmoniga muvofiq, tumanda 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish bilan ta’minlash uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish buyicha loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu loyihaga asosan tumanda joylashgan korxona va tashkilotlardan 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun jami 158 ta ish o‘rni zaxiraga qo‘yish rejalashtirildi.

Shundan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — 45 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun — 1 kishi;

ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari uchun — 97 kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun — 8 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun — 2 kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun — 5 kishi uchun ish o‘rinlari zahiraga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

Tuman hududida joylashgan davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalarga ish o‘rinlari zahiraga qo‘yish taklif etilmoqda.

Shundan:

- "ACS EXPLORATION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 5 ta ish o‘rni.
- "MASTER CAMP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 4 ta ish o‘rni.
- "MINEX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 12 ta ish o‘rni.
- TOMDI TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI UNITAR KORXONAsiga 4 ta ish o‘rni.
- "GOLDEN RESULT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 5 ta ish o‘rni.
- "ASL-MANTAJ-EXSPRESS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 9 ta ish o‘rni.
- "AURUM GLOBAL GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONAsiga 12 ta ish o‘rni.
- ROCKGEO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATiga 9 ta ish o‘rni taklif qilinmoqda.

Ushbu zahiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga tumandagi ishsizlarni ish bilan ta’minlash ishlari olib boriladi.

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi **965-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi 126-son Farmoniga muvofiq, 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish bilan ta’minlash uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish maqsadida, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2026-yil 30-sentabrdagi 17/09-01/07-394-sonli xati, Xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 16-oktyabrdagi DKQ-03-01/103-26-sonli qarori hamda deputatlar tovonidan bildirilgan fikr-mulohazalarnin inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi **98-son** Farmoniga muvofiq ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi hamda **126-son** Farmoniga muvofiq ish o‘rinlarini majburiy zaxiralash tartibi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining takliflari ma’qullansin va 2027-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun jami 158 ta ish o‘rni zaxiraga qo‘yilsin, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — 45 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun — 1 kishi;

ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari uchun — 97 kishi;

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun — 8 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun — 2 kishi;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun — 5 kishi.

3. 2027-yilda zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi **50 foizdan** yuqori bo‘lgan korxonalar) bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni **100 nafardan** ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi **50 foizdan** yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) bo‘yicha manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida **25 foizini** kalendar yil boshlanishidan oldin **10 kundan** kechiktirmay tayyor holga keltirsin hamda bu haqda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga axborot **taqdim etsin**;

ish o‘rinlarining qolgan qismini kalendar yilning birinchi choragi davomida zaxiraga qo‘ysin hamda birinchi chorak tugaganidan keyin **10 kun** ichida bu haqda axborot **taqdim etsin**;

ishga joylashtirilgan fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oy hisobot oyidan keyingi oyning **5-sanasiga** qadar taqdim **etib borsin**.

Ish o‘rinlarini zaxirada saqlash **“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi** Qonunning **40-moddasiga** muvofiq amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi **64-son** qaroriga muvofiq, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslarni

belgilangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ish beruvchilar subsidiya olish huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning **3, 13, 34, 38, 39, 40** va **41-moddalariga** muvofiq mazkur qaror talablarini bajarmagan ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Jarima qo‘llanilishi ish beruvchini zaxiraga qo‘yilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish majburiyatidan ozod etmaydi.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Aytbayev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini “Bandlik xizmati” axborot tizimi orqali ish beruvchining “YaMMT” IDAKdagi shaxsiy kabinetiga yuborsin;

qaror ijrosi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshirsin;

qaror talablarini bajarmagan yoki fuqarolarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko‘rilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash xalq deputatlari Tomdi tumani Kengashining tegishli doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Madenov nazorat qilish Xalq deputatlari Tomdi tuman Kengashi korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (J.Mirzagaliev) zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURMAXANOV JANIBEK MUSILIMOVICH**

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2026-yil 24-oktabrdagi
VII-33-97-5-75-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tomdi tumanida 2027 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar-ning umumiy soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					nogiron-ligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
	ЖАМИ:		**1 375**	**98**	**42**	**1**	**46**	**2**	**2**	**5**
1	21-сонли мактаб-интернати	200019104	37	3	1	0	2	0	0	0
2	"Oqtog` - Tomdi davlat qo`riqxonasi" davlat muassasasi	309400208	29	2	1	0	1	0	0	0
3	"Tomdi tumani 1-umumiy o`rta ta`lim maktabi" davlat muassasasi	206885622	44	3	1	0	2	0	0	0
4	Tomdi tumani 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885757	21	1	1	0	0	0	0	0
5	Tomdi tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885804	29	2	1	0	1	0	0	0
6	"Tomdi tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi"	200019128	24	2	1	0	1	0	0	0
7	4-сонли мактаб	206885639	40	3	1	0	2	0	0	0
8	8-сонли мактаб	206885685	28	2	1	0	1	0	0	0
9	"Tomdi tuman madaniyat va turizm bo`limi" davlat muassasasi	200019056	25	2	1	0	1	0	0	0
10	Tomdi tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885701	26	2	1	0	1	0	0	0
11	"Tomdi tumani 5-umumiy o`rta ta`lim maktabi" davlat	206885654	31	2	1	0	1	0	0	0

	muassasasi									
12	"Tomdi tumani 6-umumiy o`rta ta`lim maktabi" davlat muassasasi	206885661	31	2	1	0	1	0	0	0
13	Tomdi туман тиббиет бирлашмаси	200019064	367	26	11	1	11	1	1	1
14	Tomdi tumani 2-sonli "buldirshin" maktabgacha ta'lim muassasasi	207106624	27	2	1	0	1	0	0	0
15	"Navoiy viloyati sport boshqarmasi tomdi tuman sport maktabi" davlat muassasasi	207244524	41	3	1	0	2	0	0	0
16	Tomdi tumani hokimligi	200019182	36	3	1	0	2	0	0	0
17	"Navoiy viloyati madaniyat boshqarmasi tomdi tuman 12-sonli	207220658	22	2	1	0	1	0	0	0
18	"O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi tomdi tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati" davlat muassasasi	310722694	101	7	3	0	0	0	0	4
19	Tomdi tumani obodonlashtirish boshqarmasi	301602167	81	6	2	0	2	1	1	0
20	"Navoiy viloyat tomdi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi" davlat muassasasi	200019111	43	3	1	0	2	0	0	0
21	18-сонли мактаб	206885764	47	3	1	0	2	0	0	0
22	"Tomdi davlat o`rmon xo`jaligi" davlat muassasasi	200019174	52	4	2	0	2	0	0	0
23	3-сонли мактаб	206885646	40	3	1	0	2	0	0	0
24	Tomdi tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885693	34	2	1	0	1	0	0	0
25	Tomdi tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885678	33	2	1	0	1	0	0	0
26	13-сонли мактаб	206885733	29	2	1	0	1	0	0	0
27	"O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi navoiy viloyati Tomdi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi" davlat muassasasi	206885718	24	2	1	0	1	0	0	0
28	25-umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885796	33	2	1	0	1	0	0	0

Xalq deputatlari Tomdi tumani
Kengashining
2026-yil 24-oktabrdagi
VII-33-97-5-75-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Tomdi tumanida 2027 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)***
tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
					nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	ijtimoiy reyestrdagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
ЖАМИ:			**1 981**	**60**	**3**	**0**	**51**	**6**
1	"ACS EXPLORATION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312880933	180	5	0	0	5	0
2	"MASTER CAMP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312858831	129	4	0	0	4	0
3	"MINEX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312519889	386	12	0	0	6	6
4	TOMDI TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI\ UNITAR KORXONA	204771315	129	4	1	0	3	0
5	"GOLDEN RESULT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312855227	157	5	0	0	5	0
6	"ASL-MANTAJ-EXSPRESS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	303464164	306	9	1	0	8	0
7	"AURUM GLOBAL GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	309358425	391	12	1	0	11	0
8	"ROCKGEO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312877587	303	9	0	0	9	0